

JONATHAN MC CLURENING "GETTING MARRIED IN FITRAT'S OILA: A HISTORICAL PERSPECTIVE" (FITRATNING "OILA" ASARIDA NIKOH: TARIXIYLIK NUQTAI NAZARIDAN) ASARIDAGI MULOHAZALAR...

Elmurodova Xursandoy Gulmurod qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,

Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari 2 kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15211628>

Fitrat 1916-yili "Oila" nomli falsafiy asarini yozadi. Bu asar fors tilida yozilib, S.Ayniyning aytishicha, Mirza Abdulvohidning mablag'i hisobidan nashr etiladi. Buxoro ma'rifatchilari tarixshunosligida tom ma'nodagi milliy qahramonimiz Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" kitobi alohida o'rin tutadi. Abdurauf Fitrat oila to'g'risidagi o'z bilimlarini Sharq va G'arb olimlarining ko'plab ilmiy tadqiqotlari bilan tanishib chiqish jarayonida mustahkamlab, nihoyat oila masalasida o'sha davr uchun mukammal yo'riqnomani dunyoga keltirdi. Asarda oilaviy hayot islohotidan bahs yuritilib, adib najot yo'llarini axtaradi.¹ Oila muqaddas tushuncha hisoblanadi. Oilani asrash, uni tinch saqlash, gullab yashnatish zarur. Fitrat asarida oila ayol, erkak va farzanddan iboratligini yozadi. Uylanib, farzandli bo'lish ham farz ekanligi, oila Qur'onda ham muqaddasligini belgilovchi fikrlar keltiradi. Anas raziyallohu anhudan shunday hadis bor: «Nabiy (s.a.v.) dedilar: «Xudo haqqi men sizlardan ham ko'proq parhezkor va Xudodan qo'rqadigan odamman, lekin ro'za tutaman, iftor qilaman, namoz o'qiyman, uxlayman va uylanaman. Kim bu sunnatdan yuz o'g'irsa, u mening ummatim emas»² Ko'rinib turibdiku, uylanish bu sunnat. Farzand ko'rib uni yaxshi tarbiya qilish, voyaga yetkazish juda muhimdir.

Fitratning "Oila" asari Mc Clure tomonidan o'rganilib, o'zining fikrlarini yozgan. U o'zining nikoh amaliyotlari haqidagi muhokamasini to'g'ri sharoitda uylanish zaruriyatini belgilovchi omillar bilan boshlaydi (1-2-boblar). Shundan so'ng, u nikohni amalda qanday amalga oshirish kerakligi haqida fikr yuritadi (3-5-boblar). Quyida Fitratning risolasidagi tegishli boblarning qisqacha mazmuni va uning asosiy argumentlariga asos bo'lgan muhim mavzular muhokamasi keltiriladi.³ Birinchi bobida Fitrat erkakning turmush qurishi yoki yolg'iz qolishi haqida mulohaza yuritib, uylanishning foydalari va turmush qurmaslikning kamchiliklarini sanab o'tadi. Uning fikricha, turmush qurmaslik erkakni zohidlik hayotiga majbur qiladi. Bunday holatda yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini yozadi. Bundan tashqari, Fitratning ta'kidlashicha, o'zini tiyish jiddiy jismoniy va ruhiy kuch sarflashga olib keladi.

Aksincha, uylanish bir qancha afzalliklarga ega. Bu erkaklar va ayollar o'rtasida tinch-totuvlikni ta'minlaydi. Fitratning fikricha, turmush qurish aholi sonining o'sishiga yordam beradi va shu orqali bir xalqning muvaffaqiyat qobiliyati hamda axloqiy fazilatlarini ortadi. Oila boqish zarurati erkaklarni mas'uliyatli va jamiyatga foydali a'zolar bo'lishga undaydi. Shuningdek, uylanish erkaklarga hayotning kundalik muammolarida tasalli beradi; ya'ni, ayol

¹ Rustam Sharipov "Turkiston jadidchilik harakati tarixidan". Toshkent "O'qituvchi". 2002. B-113

² Abdurauf Fitrat "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari". Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2013. B-10

³ Jonathan Mc Clure Getting married in Fitrat's Oila: A historical perspective. (Masters of arts) Indian university, 2019. P-7.

er uchun orom va dalda manbai bo'ladi. Shu tarzda uylanish ko'plab axloqiy, ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarga ega amaliy zarurat sifatida qaralishi kerak.

Ikkinchi bobda Fitrat erkakning nechta ayolga uylanishi mumkinligi masalasini ko'rib chiqadi. Uning nazarida bu oldindan belgilangan aniq son masalasi emas, balki oila baxt-saodatini optimallashtirish masalasidir.⁴ Shu sababdan u ko'p xotinlilik amaliyotini muhokamaga oladi. Fitratning ta'kidlashicha, ko'p ayol olish bilan bog'liq muammolar, asosan, xotinlar va ularning farzandlari o'rtasida erning e'tibori uchun kurashlar tufayli kelib chiqadi. Bu esa xonadonda tinchlik o'rnatilishiga to'sqinlik qiladi va oxir-oqibat oilaviy birlikni buzuvchi qator muammolarga sabab bo'ladi. Yangi xotin birinchi ayolingiz bolalariga, eski xotin yangi ayolingiz farzandlariga dushmanlik qilib jonlariga azob beradilar. Hatto, fursat topib, bir-birlarining bolalarini hiyla bilan nobud qilish pa- yiga tushadilar. Bu buzg'unchilik, urush va janjallarga bardosh bermay majbur bo'lib, ikki ishdan birini tanlaysiz yo xotinlarni bir-biridan ajratasiz, ya'ni birini boshqa uyga ko'chirib sadaqa, deb biror narsa berasiz yoki talog'ini berib, boshqa kishining soyasiga yuborasiz. Shu bahona bilan farzandlaringiz ota mehridan mahrum bo'ladilar. Yomon tarbiya olib boshingizga balo bo'lishlari ham ehtimoldan xoli emas. Har ikkala yo'l ham barchangiz uchun zulm va insofsizlik dan boshqa narsa emas.⁵ Ko'p xotinlik yomon tomoni shundaki, ikkala ayol bir birlarini yomon ko'rib qolishi va bu farzandlar o'rtasida adovatga sabab bo'lishi mumkinligini Fitrat asarida ko'rsatib o'tadi. Shundan keyin oilada tinchlik va erkak kishining xotirjamligi yo'qolishi aytiladi. Haqiqatan, oilada osoyishtalik yo'qoldiki, erkak kishining xayoli parishon bo'ladi va ishi rivojlanmaydi, oilada esa baraka yo'qolasha boshlaydi. Natijada, qo'shni va qarindoshlar ham bu uyga kelishmay qo'yishadi, farovonlik bo'lmagan joyga hech kim borishni istamaydi.

Fitrat tomonidan taqdim etilgan ustunliklar juda jiddiy asosiy muammolar bilan taqqoslaganda ahamiyatsiz bo'lib ko'rinishi mumkin. Bu ustunliklarga quyidagilar kirgan: birinchi xotini hayz ko'rayotganda noqonuniy shahvoniy xatti-harakatlardan saqlanish, chunki hayz davrida ayol bilan jinsiy aloqa qilish taqiqlangan edi; va xotini homiladorlikdan keyin tiklanayotgan davrda jinsiy ehtiyojlar uchun yechim topish. Shuningdek, Fitrat poligamiya (ko'pxotinlilik) birinchi xotini bepusht bo'lgan holatlarda nasl qoldirish imkonini berishini ta'kidlagan.

“Ko'p xotinlik noto'g'rimi” savoli orqali nima uchun ikki va uch ayolga uylanish mumkinligini ko'rsatib beradi. Uylanishning asosiy maqsadi farzand ekani ma'lum. Ba'zi erkaklar bir xotin bilan uzoq yillar yashab farzandlik bo'la olmaydilar. Majbur bo'lib bu dunyodan nishonsiz o'tmaslik uchun boshqasiga uylanadilar. Yozganlarimizdan ma'lum bo'ladiki, ikki xotinlilikning ham foydasi bo'lib, hatto, ba'zan zarur ham.⁶ Adolat qilib bilinsagina, ikki ayolga uylanish to'g'riligi yoziladi. Agar ikki ayol o'rtasida adolat qilib bilolmasa, xayolga ham keltirmaslik joiz deyiladi. Ikkalasini ham birdek yaxshi ko'rish, ikkinchisini birinchisiga nisbatan ko'proq yaxshi ko'rsa ham u ayoliga bildirmaslik va ko'nglini og'ritmaslik kerakligi aytilgan.

Fitrat uchinchi bobda kelin tanlash masalasiga o'tadi va darhol sovchilarning ishtirokidagi jarayonga e'tibor qaratadi. Sovchilik jarayoni odatda erkakning onasi yoki boshqa bir ayolga

⁴ Jonathan Mc Clure, P-8.

⁵ Abdurauf Fitrat Oila yoki oilani boshqarish tartibi. ikkinchi nashr. Toshkent "Ma'naviyat", 2000. B-17.

⁶ A. Fitrat Oila, B-18.

kelin izlash vazifasini yuklash bilan boshlanar edi. Sovchilar potentsial kelinlarning uylariga borib, ularni suhbatdan o'tkazgan. Dastlabki suhbatdan so'ng, sovcilar qaytib kelin haqida kuyovga ma'lumot berar edilar.⁷ Mc Clure aytishicha, Agar hisobot ijobiy bo'lsa, yosh qizning oilasiga rasmiy turmush qurish taklifi yuborilgan, shundan so'ng uning oilasidan bir guruh odam kuyovni ko'rishga borib, uning mol-mulkini baholashardi. Mol- mulki deb sarpolarini nazarda tutilyapti. Agar ular ham kuyovning holatini maqbul deb topsa, nikoh marosimi davom etishi mumkin edi. Qimmatbaho sarpolar evaziga qizni uzatishga rozi bo'lishadi. Bu jarayon davomida kelin va kuyov to'y marosimigacha hech qachon uchrashishmasdi. Fitratning fikricha, ular faqat nikoh shartlari bo'yicha savdolashish orqali bir-birlari bilan tanishib olishardi, bu esa ko'pincha ikki tomondan biri yoki ikkalasi ham rostgo'y bo'lmaganligini fosh etardi. Fitrat bu jarayonga keskin tanqidiy munosabat bildirgan. U kelajak haqida gapirar ekan, kelin tanlash atrofidagi odatlar yangi turmush qurganlarni hatto uchrashishdan oldin bir-birlariga ishonmaslikka olib kelishini ta'kidlagan. Bunday holatda, na mehr-oqibat va na ehtirosli sevgi paydo bo'lishi uchun imkoniyat bo'lardi. Natijada, to'ydan ko'p o'tmay dushmanlik yuzaga kelardi. Ishonchsizlik osonlik bilan janjallarga, keyin esa nafrat va oxir-oqibat ayanchli holatga aylanishi mumkin edi. Eri o'z g'azabini zo'ravonlikka aylantirishi ehtimoli bor edi. Ayol esa, o'z navbatida, erni ochiqchasiga hurmat qilmasligi va qasddan uning pulini isrof qilishi mumkin edi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llabquvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938 sonli Farmoni
2. A. Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq". T., "O'qituvchi". 1994
3. M. Imamova. Oilada bolalarning ma'naviy axloqiy tarbiyasi — T. "O'qituvchi". 1999
4. Alimova D. Oila poydevori haqida risola (asaming ikkinchi nashriga kirish so'zi). Fitrat. Oila. -T.: «Ma'naviyat», 2000.
5. Fitrat A. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. -T.: «Ma'naviyat», 2000.

⁷ J. Mc Clure, P 9.